

**QUYI AMUDARYO DAVLAT BIOSFERA REZERVATIDA BUXORO BUG‘USI
(CERVUS ELAPHUS BACTRIANUS) POPULYATSIYASINING SON DINAMIKASI VA
MUHOFAZA ISTIQBOLLARI (2019–2026-YY.)**

Tureev Aqilbek Mirzabekovich

Quyi Amudaryo davlat biosfera rezervati katta ilmiy xodimi.

Karamatdinov Salawat Saymatdin uli

Quyi Amudaryo davlat biosfera rezervati ilmiy xodimi.

Tulibayev Dastanbek Davranbek o'g'li

Quyi Amudaryo davlat biosfera rezervati agroekologi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20321800>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Quyi Amudaryo davlat biosfera rezervati (QADBR) hududida yo‘qolib borayotgan va "Qizil kitob"ga kiritilgan **Buxoro bug‘usi (Cervus elaphus bactrianus)** populyatsiyasining 2019–2026-yillar oralig‘idagi son dinamikasi tahlil qilinadi.

Tadqiqotlar davomida populyatsiyaning o‘shirish sur‘atlari, yashash muhitining o‘zgarishi va muhofaza tadbirlarining samaradorligi o‘rganildi.

Kalit so‘zlar: Quyi Amudaryo davlat biosfera rezervati (QADBR), Buxoro bug‘usi (Cervus elaphus bactrianus), son dinamikasi, ekologik monitoring, to‘qay ekotizimi, muhofaza tadbirlari, ekologik sig‘im, gidrologik rejim, genofond, "Qizil kitob".

KIRISH

O‘zbekiston va Xalqaro tabiatni muhofaza qilish ittifoqi (IUCN) "Qizil kitob"ga kiritilgan Buxoro bug‘usi (*Cervus elaphus bactrianus*) Amudaryo bo‘yi to‘qay ekotizimlarining muhim indikator turi hisoblanadi. Tabiiy areallarning qisqarishi natijasida yo‘qolib ketish xavfi ostida qolgan ushbu turni saqlab qolish va ko‘paytirishda Quyi Amudaryo davlat biosfera rezervati (QADBR) bugungi kunda mintaqadagi eng asosiy strategik poligon vazifasini o‘tamoqda.

So‘nggi yillarda global iqlim o‘zgarishi va Orolbo‘yi mintaqasidagi gidrologik rejimning beqarorligi to‘qaylar degradatsiyasiga hamda hayvonlar ozuqa bazasining o‘zgarishiga olib kelmoqda. Bunday sharoitda populyatsiya soni, uning jinsiy-yosh tarkibi va hududning ekologik sig‘imini doimiy monitoring qilib borish hamda turning kelgusi rivojlanish tendensiyalarini aniqlash g‘oyat dolzarbdir.

Metodologiya: Monitoring ishlari marshrutli kuzatish, izlar tahlili va zamonaviy fotomonitoring usullari yordamida olib borildi. Xususan, 2026-yilning bahorgi hisobga olish ishlarida asosiy e‘tibor bug‘ularning mavsumiy tarqalishi va jinsiy-yosh tarkibiga qaratildi.

Natijalar: Ko‘p yillik kuzatuvlar populyatsiya sonining o‘zgaruvchan, ammo barqaror ekanligini ko‘rsatmoqda. Populyatsiya soni 2019-yildagi 1233 tadan 2022-yilda maksimal 1775 taga yetgan edi. 2026-yilning bahor mavsumida o‘tkazilgan oxirgi sanoq natijalariga ko‘ra, rezervat hududida bug‘ular soni 1508 boshni tashkil etmoqda. Bu ko‘rsatkich populyatsiyaning hududiy sig‘im va ekologik omillar ta‘sirida ma‘lum bir barqarorlik bosqichiga o‘tganligidan dalolat beradi.

Xulosa: Bug‘ularning son dinamikasi bevosita gidrologik rejim, to‘qay o‘simliklarining holati va muhofaza darajasiga bog‘liq. 2026-yilgi ko‘rsatkichlar populyatsiyaning yashovchanligini saqlab qolish uchun suv resurslarini boshqarish va ozuqa bazasini muhofaza qilish tadbirlarini davom ettirish zarurligini tasdiqlaydi. Quyi Amudaryo biosfera rezervati ushbu turni tabiiy muhitda saqlab qolish bo‘yicha mintaqadagi asosiy poligon bo‘lib qolmoqda.

Shu bois, bug'ularning bir qismini boshqa to'qay massivlariga ko'chirish orqali yashash arealini kengaytirish hamda rezervat hududida ozuqa bazasi barqarorligini ta'minlash dolzarb vazifa hisoblanadi. Ushbu strategik yondashuv tur genofondini saqlash va to'qay ekotizimlarini degradatsiyadan himoya qilishning eng samarali yo'lidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. **O'zbekiston Respublikasining Qizil kitobi.** 2-jild: Hayvonot dunyosi. – Toshkent: Chinor ENK, 2019. – 392 b. (*Buxoro bug'usining milliy maqomi va muhofaza darajasini asoslash uchun*)
2. **Lim, V. P., Tureev, A. M.** Quyi Amudaryo davlat biosfera rezervatida Buxoro bug'usi (*Cervus elaphus bactrianus*) populyatsiyasining monitoringi va zamonaviy holati // O'zbekiston biologiya jurnali. – Toshkent, 2021. – №3. – B. 45–51. (*Avvalgi yillardagi monitoring ma'lumotlari bilan solishtirish uchun*)
3. **Pereladova, O.** Bukhara deer conservation in Central Asia: results of the WWF project implementation (1998–2018). – Moscow: WWF Russia, 2019. – 120 p. (*Buxoro bug'usi populyatsiyasining xalqaro miqyosdagi dinamikasi va WWF loyihalari natijalari uchun*)